Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

"YOZILMAGAN XAT" MISOLIDA TO'RT DARAJALI METODOLOGIK MODEL

Nargiza Jumaniyazova*
mustaqil izlanuvchi, Farg'ona davlat universiteti
✉ nartsiss75@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqotda Uilyam Folknerning "Shovqin va g'azab" hamda O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanlaridagi qahramonlar nutqi va oila instituti qiyosiy-tipologik tahlilga tortiladi. Mualliflar ijodidagi "yozilmagan xat" poetik tushunchasi va "bo'saqa xronotopi" universal interpretativ vosita sifatida o'rganiladi. Tadqiqot natijasida, uzoq va tarixiy-genetik jihatdan bog'liq bo'lmagan milliy adabiyotlarni teng huquqli o'rganishga xizmat qiluvchi to'rt darajali invariant qiyosiy-tipologik metodologik model taklif etilgan.

Kalit so'zlar

yozilmagan xat, epistolyar janr, ichki monolog, bo'saqa xronotopi, oila instituti, qiyosiy adabiyotshunoslik, V.M. Zhirmunsky.

DOI: 10.5281/zenodo.21743469

Kirish.

Qiyosiy adabiyotshunoslikda V.M. Jirmunskiy nazariyasiga muvofiq, kontakt-genetik aloqalar va strukturaviy-tipologik parallellar qat'iy farqlanadi. Aksariyat qiyosiy tadqiqotlar hamon g'arbona kanonlarning milliy adabiyotga ta'sirini o'rganuvchi modelga tayanadi. Ushbu tadqiqotda esa, o'zbek va amerika modern adabiyoti namunalari hech qanday adabiy ta'sir yoki tarjima munosabatlarisiz, sof tipologik konvergensiya asosida, teng ilmiy tekislikda qiyoslanadi. Tadqiqot obyekti sifatida U. Folknerning "Shovqin va g'azab" (1929) hamda O'. Hoshimovning "Ikki eshik orasi" (1985) romanlari tanlab olindi.

M. Baxtinning "Bo'saqa xronotopi" va "Yozilmagan xat" xususiyati. M. Baxtin nazariyasidagi "bo'saqa xronotopi" (threshold chronotope) makon va vaqt koordinatalarining uzviy kontinualligini hamda qahramon hayotidagi eksiztensial krizis nuqtalarini ifodalaydi. Bu xronotop "Ikki eshik orasi" romanida makrostrukturaviy miqyosda bo'y ko'rsatadi: inson umri ikki eshik (bo'saqa) orasidagi masofa sifatida o'rganilib, hikoyachilar xotiralarining "hozirgi kun" va urush davri o'rtasidagi o'tish nuqtalariga aylanadi. Folknerda esa bu holat mikrostrukturaviy xarakterga ega bo'lib, Kventin Kompsonning o'limi oldidan kechgan qisqa va qat'iy kalendarga asoslangan soatlik bo'saqasiga joylanadi.

Ushbu spatiotemporal nuqtada "yozilmagan xat" (unwritten letter) hodisasi yuzaga keladi. Bu hodisa — ichki monologning muayyan tinglovchiga qaratilgan, ammo hech qachon qog'ozga ko'chmaydigan, dildagi pinhona murojaat shaklidir. Folknerda Kventinning Keddiga yo'llangan tuganmas ruhiy nidosi bo'lsa, Hoshimovda 47 ta bob davomida har bir hikoyachining bugungi kun tinglovchisiga dildan aytgan e'tirofi yozma maktubga aylanmaydigan og'zaki qissa bo'lib qolaveradi.

Oila instituti talqinining qiyosiy tahlili. Har ikki asarda oila — tarix va jamiyat evrilishlarining mikrokosmidir. Biroq, inqiroz tabiati tubdan farqlanadi. Folkner prozasida oilaviy krizis endogen (ichki) xarakterga ega bo'lib, ota-onalik burchining bajarilmasligi va ruhiy tanazzul (pessimist ota va xudbin ona) oqibatida tizim halokatiga olib keladi. Aksincha, Hoshimov badiiy olamida oila ekzogen (tashqi) kataklizm — urush

sinovidan o‘tadi (Kimsan qismati) va uning barqarorligi mahalla-jamoa institutining ijtimoiy ko‘magi orqali ta’minlanadi. E’tiborlisi, har ikki romanda ham oilani integratsiyalash va saqlab turish missiyasini rasmiy qon-qarindoshlik iyerarxiyasiga mansub bo‘lmagan subyektlar — I. G‘afurov tarjimasida mukammal shakllangan xizmatkor Dilsi hamda mahalla yetakchisi Orif oqsoqol bajaradi. Bu esa adabiyotshunoslikdagi “Donishmand qariya/kampir” (*Wise Old Man/Woman*) arxetipining tizimlashtiruvchi rolini tasdiqlaydi.

Qiyosiy-tipologik tahlilning to‘rt darajali tizimli modeli. Ikki romanning parallel tahlili jarayonida tadqiqot obyekti va mavzusidan qat’i nazar, muntazam ravishda invariant strukturaning takrorlanishi kuzatildi. Shundan kelib chiqib, biz istalgan ikkita milliy adabiyot namunalarini qiyoslashda universal interpretativ vosita bo‘lib xizmat qiladigan invariant to‘rt darajali metodologik modelni (matrisani) taklif etamiz:

1. **Kompozitsion-strukturaviy daraja:** Matnning tektonik arxitektonikasi va narrativ strategiyalari o‘rganiladi. (“Ikki eshik orasi”ning 7 qism, 47 bob va nominal hikoyachilarga asoslangan ochiq polifoniyasi hamda “Shovqin va g‘azab”ning taqvim sanalariga biriktirilgan, implitsit/yashirin hikoyachili to‘rt qismli kompozitsiyasi qiyoslanadi).
2. **Xronotopik daraja:** Makon va vaqt kontinualligi, bo‘saqa xronotopining asar nomiga yoki boblar tizimiga bog‘lanishi hamda uning sotsial-estetik funksiyalari (jamoaviy xotira yoki individual fojia) tadqiq etiladi.
3. **Obrazlarning psixologik-arxetipik darajasi:** Personajlar tizimi Z. Freyd va K.G. Yung nazariyalari asorida hamda oila sotsiologiyasi prizmasidan o‘rganiladi (Orif oqsoqol–Dilsi hamda Muzaffar–Benji parallelligi, endogen va ekzogen inqiroz ziddiyatlari).
4. **Lingvo-poetik daraja:** Makrostrukturaning matn yuzasidagi bevosita lingvistik va uslubiy transformatsiyalari (mikrosintaktik qurilmalar, leksik-semantik vositalar, I. G‘afurov o‘g‘irmasidagi Folkner sintaksisining xususiyatlari) tadqiq qilinadi.

Ushbu darajalar o‘zaro dialektik va ikki tomonlama xarakterga ega: yuqori makrodarajadagi konseptual tanlovlar quyi darajadagi lisoniy vositalar seleksiyasini belgilasa, quyi sathdagi empirik siljishlar (masalan, tarjimadagi sintaktik qiyinchiliklar) yuqori qatlamdagi polifoniya va kompozitsiya strukturasining nima sababdan aynan shunday shakllanganini ilmiy jihatdan tushuntirib beradi.

Xulosa.

O‘. Hoshimov va U. Folkner asarlari misolida muvaffaqiyatli sinalgan ushbu to‘rt darajali tizimli model — milliy adabiyotlarni dunyo adabiy jarayonlari kontekstida, ularni G‘arb modellarining shunchaki taqlidchisi sifatida emas, balki jahon adabiy formalarini boyituvchi teng huquqli, mustaqil va to‘laqonli ishtirokchisi sifatida o‘rganishga xizmat qiluvchi universal metateoriyadir.

Adabiyotlar ro‘yxati (References):

1. Bakhtin, M. M. (1981), *The Dialogic Imagination: Four Essays*. University of Texas Press.
2. Zhirmunsky, V. M. (1967), *Sravnitelnoe literaturovedenie: Vostok i Zapad*. Nauka.
3. Faulkner, W. (1929). *“The Sound and the Fury”*. Jonathan Cape and Harrison Smith. (O‘zbekcha nashri: Folkner, U. *“Shovqin va g‘azab”*. Tarjimon: I. G‘afurov. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018).
4. Hoshimov, O‘. (2012).*”Ikki eshik orasi”. Roman*. “Sharq” NMAK.